

“ARBA’IN” ASARIDA NAVOIY USLUBIYATI

Zarinabonu Qahhorova

Qarshi davlat universiteti talabasi

E-mail: zarinaqahhorova1@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Arbain” asari tahlil qilinib, undagi diniy-tasavvufiy qarashlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Asarga singdirilgan tasavvufiy g‘oyalar, xususan, Allohga muhabbat, ruhiy poklik, sabr, tavba, va ma‘rifat yo‘lidagi ichki kurash kabi tushunchalarni Navoiy ijodidagi she‘riy ifodalar orqali tahlil etadi. Shuningdek, Navoiy uslubiylarining badiiy va ruhiy qatlamlari o‘rganilib, uning o‘ziga xos poetik uslubi, badiiy san‘at vositalaridan foydalanishi va diniy-falsafiy g‘oyalarni yuksak badiiyat bilan ifoda etish mahorati yoritiladi. Maqola Navoiy ijodini chuqurroq anglashga va tasavvufiy adabiyotning estetik va ruhiy boyliklarini qadrlashga xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется произведение Алишера Навои «Арбаин» и раскрывается сущность и содержание религиозно-суфийских взглядов, представленных в нём. Суфийские идеи, заложенные в произведении, в частности такие понятия, как любовь к Аллаху, духовная чистота, терпение, покаяние и внутренняя борьба на пути познания (маърифат), анализируются через поэтические выражения в творчестве Навои. Также изучаются художественные и духовные слои стиля Навои, освещаются его самобытный поэтический стиль, использование художественных средств и мастерство выражения религиозно-философских идей с высокой степенью художественности. Статья служит более глубокому пониманию творчества Навои и оценке эстетического и духовного богатства суфийской литературы.

Annotation : This article analyzes Alisher Navoi’s work Arbain and reveals the content and essence of the religious-Sufi views contained in it. The Sufi ideas embedded in the work—specifically such concepts as love for Allah, spiritual purity, patience, repentance, and the inner struggle on the path of ma‘rifat—are examined through the poetic expressions in Navoi’s oeuvre. In addition, the artistic and spiritual layers of Navoi’s stylistics are studied, illuminating his unique poetic style, his use of artistic devices, and his mastery in expressing religious-philosophical ideas with high artistry. The article serves to deepen the understanding of Navoi’s creativity and to appreciate the aesthetic and spiritual riches of Sufi literature.

Alisher Navoiyning ijodiy merosi, avvalo, Islom dinining e‘tiqodiy va axloqiy tamoyillari, Qur‘on oyatlari hamda hadislar ma‘nolariga tayangan holda shakllangan. Islom dini Navoiy ijodining tamoyili, poydevoridir. Uning asarlarida payg‘ambarlar, avliyolar va olimlar hayotidan bo‘lgan o‘gitli rivoyatlar, ruhiy poklik, sabr-sinov, tavba va ma‘rifat yo‘lidagi ichki kurash kabi tasavvufiy tushunchalar o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, “Arba’in” asarida to‘plangan qirqta sahih hadisni turkiy tilimizga ruboiy shaklida tarjima qilish orqali Navoiyning ana shunday ulkan ilmiy-ma‘rifiy ishni xalq ongiga yetkazishga bo‘lgan fidoyiligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Arba’in” asarlarini yozish Navoiy davrigacha ham mavjud bo‘lgan. “Arba’in” so‘zi arabcha “arba”, ya‘ni “qirq” so‘zidan olingan va u qirqta mashhur, sahih hadisni ruboiy ko‘rinishida she‘riy shaklga solib sharhlash san‘atini anglatgan. Bu asar turi yaralishiga Paylambarimiz (s.a.v)ning quyidagi hadislarini asos bo‘lgan:

“Kim ummatimga din ishlari borasida qirqta hadisni muhofaza qilib bersa, Alloh uni qiyomat kuni faqih qilib tiriltiradi va qiyomat kuni men unga shafatchi va guvoh bo‘laman “.

Hadislarni she'riy yo'l bilan yoritilishi o'z navbatida bu hadislarni xalq tili uchun tushunarli bo'lishiga, oson yodda saqlanishiga xizmat qilgan. Alisher Navoiyning do'sti Abdurahmon Jomiy ham fors tilida “Arba'in” asarini yaratgan edi va Navoiy ham undan ilhomlanib, uni turkiy zabon kitobxonlarga yetkazishga ahd qilgan. Bu haqda Navoiy asarda to'xtalib o'tadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,

Oriy erdi bu nafdan atrok.

Istadim, bu xalq ham bori,

Bo'lmag'aylar bu na'fdin oriy.

Ya'nikim, forsiy tilda so'zlashuvchilar bu hadislar mazmunini o'z tillarida ahe'riy uslubda yodlab o'rganar, atrok(turkiy xalqlar) esa bu imkoniyatdan bebahra edilar. Shu uchun ham turkiy tilli uluslar ham hadislar mazmunini oson va zavqli tushunishi, xotirasida saqlanishi uchun tatjimaga qo'l urdim, hadislarni she'rga soldim.

Alisher Navoiy “Arba'in”ining o'ziga xos jihati shundaki, asarda asosan islomiy axloq- odob masalalariga oid hadislar jamlangan. Jomiyning asarida keltirib o'tgan hadislarning ba'zilarini boshqasi bilan almashtirgan va avval har bir hadisning arabcha matnini keltirgan va ketidan she'riy to'rtlik keltirib o'tilgan. Alisher Navoiy o'zining “Arbain” asarida nafaqat ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni ilgari surgan, balki ularni badiiy jihatdan yuksak saviyada ifodalashga erishgan. Har bir baytda muallifning so'z tanlashdagi didi, uslubiy mahorati va chuqur fikr yuritish salohiyati namoyon bo'ladi. Asar tarkibida ishlatilgan badiiy vositalar, jumladan, tashbih, isti'ora, tajnis, kinoya va boshqa uslublar Navoiy poetikasining serqirra va mukammal ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, tasavvufiy obrazlar orqali axloqiy fazilatlarni targ'ib etishda muallif o'z uslubini takomiliga yetkazgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Arbain” asari uning badiiy mahorati va uslubiyati jihatidan yuksak darajada ekanini yana bir bor namoyon etadi. Asarda tasavvufiy g'oyalar, axloqiy-pedagogik mazmun va badiiy ifoda uslubining uzviy uyg'unligi kuzatiladi. Navoiy o'ziga xos obrazlar yaratish, badiiy vositalarni mahorat bilan qo'llash orqali har bir baytga chuqur falsafiy va ma'naviy mazmun yuklaydi. Uning she'riy tili boy, obrazli va mazmunga xizmat qiluvchi badiiylik bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Arbain”dagi so'z tanlovi, ifoda uslubi va badiiy tasvirlar Navoiy poetikasining yetuk namunasi sifatida o'rganishga arzigulikdir. Ushbu asar Navoiy uslubiyati va ijodiy yondashuvlarini chuqurroq anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Arba'in. Toshkent: Fan. 2000.
2. G'aniyeva Sh. Alisher Navoiy poetikasi. Toshkent: Fan. 1980.
3. Alisher Navoiy to'la asarlar to'plami. 16- jild.

